



**Shavkatov Shahzod**

Buxoro tasviriy san'at muzeyi filial rahbari

San'at – estetik faoliyatning o'ziga xos turi, sehri ma'naviy ko'zgu. Sehri shundaki, san'at asarini idrok etayotgan odam unda ham shu asarni yaratgan inson dunyosini, ham o'z dunyosini qadriyatlar prizmasi orqali ko'radi; o'zining qandayligini va qayerdaligini, yutuqlarini va nuqsonlarini, aqlni va hissiyotlarni aniqlashtirib oladi. Uning estetik mohiyati makon va zamondagi voqelik vositasida go'zallik, ulug'vorlik, fojiaiviylik, kulgilik, xunuklik, tubanlik va boshqa estetik xususiyatlarni in'ikos ettirishi hamda ularni baholashi bilan belgilanadi. San'at qadriyatlarining qadrlanishini va qadrsizlangan qadriyatlarini ko'rsatib beradi, bir odam yoki bir nechaodam timsolida odam bilan olamning yaxlit, umumlashgan qiyofasini yaratadi, ularning uyg'unligini ta'minlaydi. U kishini yashashga o'rgatadi, go'zallikka da'vat etadi, ma'naviy yuksaltiradi. Shu sababli insoniyat tarixida san'atsiz yashab o'tilgan birorta ham davr yo'q.

San'at – estetik faoliyatning o'ziga xos turi, sehri ma'naviy ko'zgu. Sehri shundaki, san'at asarini idrok etayotgan odam unda ham shu asarni yaratgan inson dunyosini, ham o'z dunyosini qadriyatlar prizmasi orqali ko'radi; o'zining qandayligini va qayerdaligini, yutuqlarini va nuqsonlarini, aqlni va hissiyotlarni aniqlashtirib oladi. Uning estetik mohiyati makon va zamondagi voqelik vositasida go'zallik, ulug'vorlik, fojiaiviylik, kulgilik, xunuklik, tubanlik va boshqa estetik xususiyatlarni in'ikos ettirishi hamda ularni baholashi bilan belgilanadi. San'at qadriyatlarining qadrlanishini va qadrsizlangan qadriyatlarini ko'rsatib beradi, bir odam yoki bir nechaodam timsolida odam bilan olamning yaxlit, umumlashgan qiyofasini yaratadi, ularning uyg'unligini ta'minlaydi. U kishini yashashga o'rgatadi, go'zallikka da'vat etadi, ma'naviy yuksaltiradi. Shu sababli insoniyat tarixida san'atsiz yashab o'tilgan birorta ham davr yo'q.

Bugungi kunda jahonning qaysi bir rivojlangan mamlakatlarini olmaylik, ta'lim sohasida, ayniqsa maktab yoshidan boshlab san'at, xususan, tasviriy va amaliy san'at haqidagi bilimlarini rivojlantirishga katta ahamiyat berib kelinmoqda. Mamlakatimizda o'rta ta'limning yana o'n bir yillik bo'lishi va unda kasbga yo'naltirish maqsadida o'quv markazlarining tashkil etilishi, shuningdek akademik





litsey, kasb-hunar kollejlari, oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlarning badiiy va estetik tarbiyasiga katta e'tibor berilmoqda.

Rang-barang buyum va jismlar borliqqa go'zallik va nafosat baxsh etadi insonga shu qonuniyatlar orqali qarashga undaydi. O'sib kelayotganyosh avlodni jahon andozalariga javob beradigan barkamol etib tarbiyalash amaliy vabadiiy bezak san'ati fani alohida ahamiyat kasb etadi. Yoshlarga badiiy ma'lumot berishda tabiat unsurlarini stillashtirish mashg'ulotlarining ahamiyati benihoy katta bo'lib, bu ularning umumiy dunyoqarashlarini o'stirishda muhim.

Amaliy va badiiy bezak san'ati fanini o'zlashtirish jarayonida talabalar:

- o'zbek milliy san'atida badiiy naqqoshlikning roli;
- badiiy naqqoshlikning o'ziga xosligi va estetik mohiyati;
- amaliy va badiiy bezak san'atida kompozitsiya masalalari haqida tasavvurga ega bo'lishlari;
- tasviriy san'atda amaliy san'atning o'rni va roli;
- naqsh turlari, badiiy naqqoshlikda zamonaviy ramzlar va milliy qadriyatlar;
- amaliy-dekorativ san'atda kompozitsiya;
- amaliy bezak san'atida kompozitsiyaning qo'llanilishini o'rganadi va ulardan foydalanadi;
- kompozitsion markaz, konstruksiya, mavzu, harakat, yaxlitlik, kolorit, nisbatlar, me'yor, mutanosib va nomutanosiblik;
- dekorativ san'at turlarida janrli kompozitsiya;
- o'quv va tarbiya jarayonida badiiy bezak san'atining o'rni;
- amaliy bezak san'atida kompozitsiya, rang masalalari, shriftlar va materiallarda ishlash texnikasi;
- interer va ekstererda badiiy bezash;
- kompozitsiyaning asosiy qonuniyatlari, frontal kompozitsiya elementlari, zamonaviy ekspozitsiya va konstruksiyalar;
- badiiy bezak san'atida xalq amaliy san'ati turlaridan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Yozuv kompozitsiyasi, yozuvlarni yozishni o'rganish, oddiy naqsh namunalarini chizish, bo'yash va pardozlash mahoratini rivojlantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Mavjud ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko'tarish, milliy kadrlar tayyorlashning yangi tizimini barpo etish, kelajak uchun barkamol, salohiyatli avlodni tarbiyalash O'zbekiston Respublikasi prezidentining barkamol avlodni voyaga yetkazish to'g'risidagi farmonlari hamda harakatlar strategiyasi negizini tashkil qiladi Amaliy san'atni o'qitishda innovatsion





texnologiyalarni qo'llashning zaruriyati mavjud. Innovatsion ta'lim texnologiyasida darsni tashkil etishga doir qator umumpedagogik-didaktik talablar qo'yiladi. Bular: - har bir dars texnologik jihatdan mukammal darajada loyihalashtirilishi;

- dars maqsad va vazifalarining aniq belgilanishi;
- darsda ta'lim vazifalarining tarbiya vazifalari bilan bog'liq bo'lishi;
- darsni o'quv dasturi, o'quv rejasi talabiga muvofiq tashkil etish;
- dars uchun ajratilgan vaqtdan unumli foydalanish;
- darsning tashkiliy jihatdan puxta belgilangan bo'lishi;
- darsning jonli, samarali va ta'lim oluvchilarga emotsional ta'sirli bo'lishi uchun ta'lim beruvchining turli xil zamonaviy va ilg'or ta'lim usullari, vositalari va ko'rgazmali qurollardan, texnika vositalaridan mohirlik bilan foydalana olishi;
- ta'lim beruvchining rahbarlik roli bilan ta'lim oluvchilarning faol bilish faoliyatini birga olib borish;
- darslarning o'zaro uzviy va dialektik xususiyatga ega bo'lishiga erishish;
- ta'lim oluvchilarning yosh va psixologik, shuningdek, mutaxassislik xususiyatlarini inobatga olish;
- darsda ta'lim oluvchi erkinligini ta'minlashga erishish;
- darsda ta'lim oluvchilarni mustaqil fikrlash hamda o'z fikrini bayon etishiga undash va imkon yaratish;
- dars davomida ta'lim oluvchilar faoliyatini to'g'ri tashkillashtirish, muammoli izlanuvchanlik layoqatlarini rivojlantirish;
- dars jarayonida o'qitishning jamoa, guruhli va yakka tartibdagi shakllarini mos ravishda qo'shib olib borish;

Asrlar davomida ortirilgan madaniy boyligimiz, xususan, o'zbek milliy xalq amaliy bezak san'atining ganchkorlik, naqqoshlik, yog'och o'ymakorligi, zardo'zlik, kashtachilik, kandakorlik, pichoqchilik, bo'yrachilik kabi turlarining o'ziga xos bajarish texnologiyasi, xaqiqiy asl nomlari, o'ziga xos maktablari, uslublari, yaratgan ustalarning nomlari asta-sekin yo'qolib ketish xavfi ostida qoldi. Shuning uchun xalqning asrlar bo'yi qilgan ijodiy mehnati natijasida yaratilgan va yaratib kelinayotkan o'zbek xalq amaliy bezak san'atini ko'z qorachig'idek saqlash, qadrlash, ulardan amalda foydalanish, yoshlarga o'rgatish orqali ularning estetik didini o'stirish hamda yuksak madaniyatli kishilar qilib tarbiyalash hozirgi davrimizning muhim vazifalaridan biridir. Bu muhim vazifani bajarishda innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati muhimdir. Chunki bu bugungi kunning talabidir. Zamondan kelib chiqqan holda amaliy san'at va badiiy bezak fannini ham aslini saqlagan holda





rivojlantirmoq, zamonga hamohang tarzda olib bormoq kerak. Sinfdan tashqari ishlar jarayonida mehnat tarbiyasi ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarning turli shakllari o'quvchining texnik ijodkorligini rivojlantiradi, u yoki bu bilim sohasida bilimga bo'lgan qiziqishini shakllantiradi. To'garaklarda o'quvchining qiziqish va qobiliyatlari namoyon bo'ladi. O'quvchilarning to'garaklardagi faoliyati ma'lum pedagogik talablarga rioya qilganda samarali bo'ladi.

To'garak faoliyati ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lishi lozim, ya'ni, o'quvchilar tayyorlagan buyumlar kishilar uchun amaliy qiymatga ega bo'lishi zarur; texnik ijodkorlik o'quv muassasasidagi o'quv-mehnat jarayoni bilan uzviy alohada bo'lishi kerak (maktab, kollej, oliy ta'lim va boshqalar); ijtimoiy-foydali, unumli mehnat jarayonida o'quvchining texnik ijodkorligintashkil etishda faoliyatni ijtimoiy buyurtmadan ijodkorlikka aylantirish kerak bo'ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. 3.Azizzodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. –Toshkent: TDPU, 2003 - 174 b.
2. Аминов, А. Ш., Мамурова, Д. И., Маматов, Д. К., & Собирова, Ш. У. (2021). Проблемы организации самостоятельной работы студентов в высших учебных заведениях. *European science*, (2 (58)), 77-79.
3. Собирова, Ш. У., Ядгаров, Н. Д., Мамурова, Д. И., & Шукуров, А. Р. (2021). Основы, цели и задачи обучения изобразительному искусству. *European science*, (2 (58)), 62-65.
4. Мамурова, Д. И., & Мамурова, Ф. И. (2015). Соотношения навыков черчения с опытом психологического исследования. *Вестник по педагогике и психологии Южной Сибири*, (1), 58-65.
5. Olimov, S. S., & Mamurova, D. I. (2022). Directions For Improving Teaching Methods. *Journal of Positive School Psychology*, 9671-9678.
6. Abdullaev S., Mamatov D. Pedagogical foundations in the teaching of folk arts and crafts of Uzbekistan in the training of teachers of fine arts //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – Т. 420. – С. 10019.
7. Djalolovich, Y. N., Kodirovich, M. D., Ruziboevich, S. A., & Islomovna, M. D. (2021). Improving the professional training of fine art teachers. *European science*, (2 (58)), 44-46.





8. Шукуров, А. Р., Ядгаров, Н. Д., Маматов, Д. К., & Аминов, А. Ш. (2021). Методика использования компьютерных программ на уроках рисования в средней школе. *European science*, (2 (58)), 47-50.

9. Mamurova D. I., Ibatova N. I., Badieva D. M. The importance of using the keys-stadi innovative educational technology method in training the image module of geometric shapes //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – Т. 4. – №. 1. – С. 335-338.

10. Ilkhamovna I. S. DEVELOPMENT OF STUDENTS' CREATIVE ABILITIES IN FINE ARTS LESSONS //International conference on multidisciplinary science. – 2023. – Т. 1. – №. 6. – С. 104-107.

11. Сулаймонова, М. Б., Азимов, Б. Б., Азимова, М. Б., & Тухсанова, В. Р. (2021). ДОСТИЖЕНИЕ ЭСТЕТИЧЕСКОЙ И НРАВСТВЕННОЙ ЗРЕЛОСТИ ОБУЧАЮЩИХСЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМУ ИСКУССТВУ. *European science*, (3 (59)), 53-56.

12. Avliyakulova, N. M. (2021). Tasviriy San'at O 'Qitish Metodikasi» Fanidan Topshiriqlarni Nazorat Qilish Va Baholash. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 1(5), 270-276.

13. Sadikovna, M. A., Razzokovna, O. G., Ilhamovna, I. S., & Muzaffarovna, A. N. (2021). The place of art in personal development. *European science*, (2 (58)), 98-100.

14. Ramazanova, O. K., & qizi Mustaqimova, G. G. (2022). Formation and Development of National Musical Traditions. *European journal of innovation in nonformal education*, 2(1), 336-339.

15. Ramazanova, O. K., & Shukurov, M. (2022). Historical development of status.

16. Sulaymonova, M. B. (2023). TASVIRIY SAN'ATNI O 'QITISHDA NAMKORLIKDAGI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ASOSLARI. *Inter education & global study*, (5), 13-19.

17. Sulaymonova, M. B. (2024). ISSUES OF IMPROVING BUKHARA MUSEUMS. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(4), 301-304.

18. Азимов, Б. Б., Азимова, М. Б., Тухсанова, В. Р., & Сулаймонова, М. Б. (2021). Педагогические, психологические и методические основы проведения бесед об искусстве. *European science*, (2 (58)), 38-40.





19. Абдуллаев, С. Ф., & Муродова, М. Х. (2022). Методические особенности методов обучения рисованию по памяти и представлению. *Universum: общественные науки*, (2 (81)), 21-24.
20. Абдуллаев, С. Ф. (1996). Восточная миниатюра в системе высшего художественно-педагогического образования. *Москва: СФ Абдуллаев.–1996.*
21. Абдуллаев, С. Ф., & Зикриллаева, В. Х. (2025). К ВОПРОСУ ФОРМИРОВАНИЯ ХУДОЖЕСТВЕННО–ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ ПО АКВАРЕЛЬНОЙ ЖИВОПИСИ У СТУДЕНТОВ ПЕРВЫХ КУРСОВ НАПРАВЛЕНИЯ ОБРАЗОВАНИЯ «ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОЕ ИСКУССТВО И ИНЖЕНЕРНАЯ ГРАФИКА»(НА ПРИМЕРЕ НАТЮРМОРТА). *AMERICAN JOURNAL OF EDUCATION AND LEARNING*, 3(2), 853-860.
22. Абдуллаев, С. Ф. (2025). Развитие творческой активности студентов младших курсов направления образования «Изобразительное искусство и инженерная графика» на занятиях по рисунку. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 5(2), 727-732.
23. Зикриллаева, В. Х., & Абдуллаев, С. Ф. (2025, March). Некоторые заметки к истории создания мавзолея Сайфиддина Бохарзи эпохи II Ренессанса. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON INTERDISCIPLINARY SCIENCE* (Vol. 2, No. 3, pp. 39-43).
24. Абдуллаев, С. Ф. (2022). Формы организации самостоятельного образования студентов направления изобразительное искусство и инженерная графика. *PEDAGOGS journali*, 1(1), 271-273.
25. Абдуллаев, С. С. (2025). РОЛЬ И МЕСТО ТРАДИЦИОННОГО НАРОДНОГО ДЕКОРАТИВНО-ПРИКЛАДНОГО ИСКУССТВА УЗБЕКИСТАНА В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ХУДОЖЕСТВЕННО-ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ. *AMERICAN JOURNAL OF EDUCATION AND LEARNING*, 3(3), 215-225.
26. Abdullaev, S., Mamatov, D., & Nurmurodova, S. (2025). PROBLEMS OF MOTIVATION FORMATION FOR VISUAL ART CREATIVITY AMONG STUDENTS IN THE PROCESS OF INDEPENDENT EDUCATION. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(1), 990-996.
27. Абдуллаев, С. Ф., and М. А. Козимова. "ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНОГО ПОТЕНЦИАЛА СТУДЕНТОВ НАПРАВЛЕНИЙ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ СРЕДСТВАМИ НАРОДНО–ПРИКЛАДНОГО ИСКУССТВА." *Экономика и социум* 12 (115)-2 (2023): 650-656.

